

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

ARAB TILIDA MAF'UL VA UNING TURLARI (maf'ul bihi va maf'ul fiyhi misolida)

Isamutdinov Azizbek

Oriental universiteti sharq tillari kafedrasi katta o 'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilining muhim sintaktik birliklaridan biri – maf'ul tushunchasi va uning turlarga ajratilishi masalasi atroficha yoritilgan. Arab tili grammatikasida maf'ul – fe'lning bevosita yoki bilvosita ta'sirini qabul qiluvchi unsur bo'lib, gapning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Maf'ulning to 'g'ri aniqlanishi va qo'llanilishi arab tilidagi matnlarni to 'g'ri tushunish va tarjima qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada arab tilshunosligining asosiy sintaktik unsurlaridan bo 'lgan maf'ul bihi (to 'g'ridan-to 'g'ri tobe bo 'lgan maf'ul) va maf'ul fiyhi (vaqt va joyni bildiruvchi maf'ul) tushunchalari tahlil qilinadi. Maqolada ushbu ikki turdag'i mafullarning grammaticak vazifalari, gapda egallagan o'rni, ularning fe'l bilan bo 'lgan munosabatlari hamda ularni ajratib ko 'rsatish mezonlari yoritilgan. Shuningdek, ularning o 'xshashlik jihatlari – har ikkisining hamfe'l talabiga javob berishi, tobe unsur sifatida ishlatilishi; va farqli jihatlari – ma 'nodagi vazifalari, band qilgan sintaktik o 'rinlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: maf'ul, sintaksis, 'al-maf'uulu-l-mutlaqu, 'al-maf'uulu bihi, 'al-maf'uulu fiyhi, 'al-maf'uulu ma 'hu, 'al-maf'uulu lahu.

Arab tilida jumladagi ma'noni aniq tushunishda muhim o 'rin tutadigan qoidalardan biri shaklan tushum kelishigida keluvchi gapning ikkinchi darajali bo 'laklaridir. O'zbek tili grammatikasida tushum kelishigidagi so'zlar hamisha kimni? nimani? qayerni? savollariga javob bo 'lsa, arab tili grammatikasida tushum kelishigidagi ismlar doimo ham bunday savollarga javob bo 'lmaydi⁵⁷. Chunki, arab tilida shaklan tushum kelishigida keladigan ismlarning turlari mavjud. Buni Mahmud az-Zamaxshariy o 'zining "al-Unmuzaj fi-n-nahv" kitobida quyidagi turlarga bo 'ladi:

المنصوبات على ضربين: اصل و ملحق به. فالاصل هو المفعول و هو خمسة اضرب والملحق به سبعة
اضرب

"Tushum kelishigidagi ismlar ikki xil bo 'ladi: asl va unga o 'xshash ismlar".

a) Asl tushum kelishigidagi ismlar "maf'ul"lardir. Ular besh xil bo 'ladi:

1) – المفعول المطلق (1) 'al-maf'uulu-l-mutlaqu – "Mutloq masdar";

2) – المفعول به (2) 'al-maf'uulu bihi – "Vositasiz to 'ldiruvchi";

3) – المفعول فيه (3) 'al-maf'uulu fiyhi – "O 'rin-paytholi";

4) – المفعول معه (4) 'al-maf'uulu ma 'hu – "Birgalikdagi to 'ldiruvchi";

5) – المفعول له (5) 'al-maf'uulu lahu – "Sabab, maqsad holi"⁵⁸.

b) Aslga o 'xshash tushum kelishigidagi ismlar esa yetti xil bo 'ladi⁵⁹:

1) الحال – al-hol – "Holat holi";

⁵⁷ Bu haqida qarang: Rakhmatova, G.O. (2023). PRINCIPLES OF DIVISION OF SIMPLE SENTENCE TYPES IN ANCIENT TURKIC LANGUAGE. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 5(11), 94-98.

⁵⁸ Носирова, М. (2005). Махмуд Замахшарийнинг «Ал Үнмузаж фи н нахв» рисоласи. – Т.: ТошДШИ. – В. 81.

⁵⁹ Nasirova M. (2004) O'rta asrnahvidan namunalar. T.: ToshDSHI, – В. 29.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

- 2) التمييز – at-tamyiz – “Cheklov”;
- 3) المستثنى – al-mustasna – “Istisno”;
- 4) الخبر في باب ”كان“ – al-xabaru fi babi (kana) bobidagi kesim;
- 5) الاسم في باب ”ان“ – al-ismu fi babi (inna) bobidagi ism;
- 6) اسم ”لا“ لنفي الجنس – ismu “la” linafyi-l-jins “لا” mutloq inkoryuklamasidan keyin kelayotgan ega;
- 7) خبر ”ما“ و ”لا“ بمعنى ”ليس“ – xabaru ma va la bima’na laysa “ ليس ” ma’nosida keladigan “ ما ” va “ لا ” inkor yuklamalari ishtirok etgan gapning kesimi⁶⁰.

Biroq arab nahvkitoblarida maf’ullar turli ko‘rinishda va turli atamalar bilan nomlanadi. Masalan Basra va Ko‘fa tilshunoslik maktablari vakillari fikrlarida qarama-qarshilik mavjud⁶¹.

Basra nahvshunoslari maf’ullarni beshta, ya’ni maf’ul bihi, maf’ul mutlaq, maf’ul ma’ahu, maf’ul fiyhi hamda maf’ullahu kabiturga ajratadi⁶².

Nahvshunoslardan Sayrofiy maf’ullarni oltita deb, oltinchisi sifatida “maf’ul minhu” atamasini kiritadi va bunga misol tariqasida “Qavmdan Zaydni tanladim” jumlasini keltiradi⁶³.

al-Javhariy esa maf’ullarning yettinchisini ham keltirib, uni “maf’ul duvnuhu”, deb nomlaydi va bunga nahvshunos olimlar tomonidan “mustasno” deb ataladigan “Qavm turdi, faqat Zayd turmadi” jumlasidagi “Zayd” so‘zini misol qilib keltiradi⁶⁴.

Ko‘pgina nahvshunos olimlar maf’ul bihini qolgan maf’ullardan oldin keltirishadi. Buning sababi sifatida, asosan, chigallik foil (fe’l bilan boshlanadigan gapning egasi) bilan maf’ul bihining o‘rtasida kelib chiqishini keltiradilar⁶⁵.

Ko‘fa nahvshunoslari esa fe’lning faqat bitta maf’uli (to‘ldiruvchisi) mavjud bo‘lib, bu “maf’ul bihi”, qolganlari esa maf’ul emas, balki “mushabbah bil maf’ul”, ya’ni maf’ulga o‘xshashdir, degan fikrni ilgari surishadi⁶⁶.

Nahvshunoslardan Ibn Siroj esa maf’ullarning birinchisi sifatida maf’ul mutlaqni qo‘yadi⁶⁷.

Ibn Ya’ish ham maf’ul mutlaq haqiqiy maf’ul, chunki masdar (harakat nomi)ni foil (bajaruvchi) yo‘qlikdan borlikka, ya’ni vujudga keltiradi. Shuning uchun fe’l o‘timli yoki o‘timsiz bo‘lishidan qat’ inazar haqiqiy maf’ul shudir. Masalan: ضربَتْ زيداً ضرباً – “Zaydni (aniq) urdim”, قام زيدَ قياماً – “Zayd (mutlaq) turdi” kabi. Qolgan maf’ullarda bunday xususiyat yo‘q, deydi⁶⁸.

Nahvshunoslarning maf’ullarni turlarga ajratishda, ularning qay birini haqiqiy maf’ul ekanligini aniqlashda va bu boradagi fikrlarning turlicha bo‘lishida, asosan, ikkitajihat muhim rol o‘ynaydi:

- 1) maf’ullarning qay biri real voqelikda subyekt tarafidan amalga oshirilgani;

⁶⁰ Носирова, М. (2005). Махмуд Замахшарийнинг «Ал Үнмузаж фи н нахв» рисоласи. Т.: TouДШИ. – В. 81.

⁶¹ Qarang: Sirojiddin SOTVOLDIEV. (2024). Lexical-Semantic And Functional Analysis Of Translations From The Arabic Press. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 39, 15–17.

⁶² العلامة ابن حمدون. كتاب حاشية العلامة ابن حمدون على شرح المكودي لآفية ابن مالك. 1955 م. ص-147

⁶³ O’sha joyda.

⁶⁴ O’sha joyda.

⁶⁵ O’sha joyda.

⁶⁶ الشيخ الهمام خالد بن عبد الله الأزهري على آفية ابن مالك في النحو. – القاهرة، 1954. – ص. 323.

⁶⁷ أبو بكر محمد بن سهل بن سراج. الأصول في النحو. – بيروت، 1996. – ص. 159.

⁶⁸ ابن يعيش مؤقت الدين أبي البقاء يعيش بن علي بن يعيش الموصلي. كتاب شرح المفصل. بيروت، 2001. ص-272

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

2) maf'ullarning fe'l bilan naqadar bog'liqligi.

Bu masalaga oydinlik kiritish maf'ullarning har birini alohida, birma-bir ko'rib chiqishlikni taqazo qiladi.

Maf'ullarni to'g'ri aniqlash nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri gap qurishga, balki matnning ma'nosini to'liq anglashga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, klassik adabiy matnlarni to'g'ri tahlil qilishda maf'ullarni aniqlash katta ahamiyatga ega. Shu bois, arab tilini o'rganishda maf'ul turlarini mukammal bilish tilshunoslar, tarjimonlar hamda diniy manbalarni o'rganuvchilar uchun zaruriy bilimlardan biridir.

Maf'ul bihiga ko'pkitoblarda aynan vositasiz to'ldiruvchi deb nom berilishi ba'zi bir tushunarsiz holatlarning yuzaga kelishiga olib kelgan. Jumladan, N.Ibrohimov, M.Yusupovlar maf'ul bihini vositasiz to'ldiruvchi⁶⁹ atamasi bilan berishgan. Biroq o'zidan keyin ikkita so'zni tushum kelishigida boshqaradigan fe'llar mavjudligi, ularning birinchisi vositali, ikkinchisi vositasiz to'ldiruvchi bo'lishini ham aytib o'tishgan va misol sifatida quyidagi gapni keltirishgan:

أَعْطَ مُحَمَّدًا كِتَابًا – Muhammadga kitob bering (mz)⁷⁰.

M.Nosirova ham maf'ul bihini vositasiz to'ldiruvchi⁷¹ atamasi bilan keltirgan.

V.N.Yushmanova bu masalani kengroq tushuntirib shunday deydi: "tushum kelishigi ish-harakatning yaqin predmetga o'tishini bildiradi, ya'ni o'timli fe'lning bevosita to'ldiruvchisidir. Masalan:

خَذْ قَلْمَانِي – Qalamni ol.

Undan so'ng ish-harakatning uzoqdagi predmetga o'tishini bildiradi, ya'ni jo'nalish kelishigi ma'nosidagi to'ldiruvchidir. Masalan:

أَعْطِنِي قَلْمَانِي – menga qalam ber.⁷²

B.M.Grande ham maf'ul bihini tushum kelishigi mavzusi ostida keltirib, ish-harakat bevosita o'tadigan obyekt, odatda, tushum kelishigi bilan ifodalanadi deb, لقى رجلاً – U bir kishini uchratdi⁷³ misolini keltiradi.

Yuqoridagi o'zbek va rus arabshunoslarining fikrlariga aniqlik kiritish maqsadida birinchi bobda keltirib o'tilgan zamonaviy arab nahv shunoslaridan biri Mustafo G'alayiyiniyning maf'ul bihiga bergan quyidagi ta'rifi va bu boradagi ba'zi bir fikrlari bilan tanishib chiqamiz: "Bajaruvchining ish-harakati nimaning ustida ro'y bersa, ish-harakatning bo'lishli yoki bo'lishsiz bo'lishidan qat'iy nazar o'sha narsani anglatuvchi so'z maf'ul bihidir. Shu sababdan, fe'l shakli aniq nisbatda turadi. Masalan:

بَرِيتَ الْفَلَمَ – qalamni yo'ndim.

مَا بَرِيتَ الْفَلَمَ – qalamni yo'nmadim.

Agar fe'l gapda bittadan ko'proq maf'ul bihini talab qiladigan bo'lsa, ma ful bihi uyushib keladi. Masalan:

أَعْطَيْتَ الْفَقِيرَ دَرْهَمًا – Faqirga dirham berdim.

ظَنَنْتَ الْأَمْرَ وَاقِعًا – Ishni bo'ldi (ro'y berdi) deb o'ylabman.

⁶⁹ Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. 1-jild. – T., 1997. – B. 427.

⁷⁰ O'sha kitob. – T.: 1997. – B.380

⁷¹ Nosirova M. Mahmud Zamaxshariyining "al-Unmuzaj fi-n-nahv" risolasi. – T.: ToshDSHI, 2005. – B. 97.

⁷² Yushmanov V.N. Грамматика литературного арабского языка. – Санк-Петербург: Юридический центр Пресс, 1999. – C. 112.

⁷³ B.M.Grande "Kurs arabskoy grammatiki v srovnitel'no-istoricheskem osveshenii" Moskva. 1998. – B. 343

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

— أعلمت سعيداً الامر جلياً — Saidga ishning aniq ekanligini bildirdim.”⁷⁴

So'ngi keltirilgan ma'lumotdan ko'rinish turibdiki, gapda fe'l ta'sirida maf'ul bihi uyushib kelishi mumkin. Bunday hollarda uyushib kelgan maf'ul bishilarining biri o'zbek tilidagi vositali to'ldiruvchiga to'g'ri keladi. Demak, maf'ul bishini aynan vositasiz to'ldiruvchi deb nomlashdan ko'ra “to'ldiruvchi” deb qo'ya qolishning o'zi ma'qulroqdir. Biroq masalaga chuqurroq yondoshadigan bo'lsak, maf'ul bishini “to'ldiruvchi deb qo'ya qolishimiz ham kifoya qilgudek emas. Chunki maf'ul bishini qoidalariga doir misollarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayoni masalani yanada kengroq ekanligini ko'rsatadi.

“Maf'ul bishini o'zbek tiliga tarjima qilinganda nafaqat tushum kelishigida vositasiz to'ldiruvchi qilib, balki jo'nalish, chiqish, qaratqich kelishiklarida ham tarjima qilishga to'g'ri keladi. Bu gapda maf'ul bishini talab qilib kelayotgan fe'lning ma'nosi va uning qanday fe'llar turkumiga kirishligi bilan bog'liq bo'ladi. O'zbek tiliga tushum kelishigida vositasiz to'ldiruvchi qilib tarjima qilinadigan maf'ul bishni arab tilida juda ko'pdır. “Yozmoq”, “tushunmoq” kabi o'timli fe'llardan so'ng keladigan ismlarni hech bir muammosiz o'zbek tiliga tushum kelishigida tarjima qilishimiz mumkin. Masalan:

— كَتَبَ الطَّالِبُ الْوَاجِبَ — Student vazifani yozdi.

— فَهَمْتُ زِينَبَ الْمَوْضُوعَ — Zaynab mavzuni tushundi.⁷⁵

Jo'nalish, chiqish, qaratqich kelishiklarida tarjima qilishga to'g'ri keladigan holatlар esa, odatda, o'zidan keyin ikkita yoki uchta maf'ul bishini talab qilib keladigan fe'llar ishtirok etgan gaplarda yuzaga keladi. Arab tilida o'zidan keyin ikki yoki uchta maf'ul bishini talab qilib keladigan fe'llar quyidagilardir:

1) o'zidan keyin ikkita maf'ul bishining kelishini talab qiladigan fe'llar. Bunday fe'llaro'z ichida ikkiga bo'linadi: a) o'zidan keyin ikkita maf'ul bishining kelishini talab qiladigan fe'llar. Bunday fe'llar ishtirokida fe'l kesimli gapdan fe'lni olib tashlanganda qolgan ikkita maf'ul bishining o'zidan ot kesimli gap tuzish mumkin. Bu turdag'i fe'llar quyidagilar: ظن، خال، حَسِبَ، زَعَمَ، جَعَلَ، عَدَ، حَجا، هَبَ، رَأى، ظَنَّ، خَالَ، حَسِبَّ، زَعَمَّ، جَعَلَّ؛ b) bu turdag'i fe'llar ham o'zidan keyin ikkita maf'ul bishini talab qiladi, biroq bunday fe'llar ishtirokida fe'l kesimli gapdan fe'lni olib tashlaganda qolgan ikkita maf'ul bishining o'zidan ot kesimli gap tuzishning imkonini bo'lmaydi. Bu turdag'i fe'llar quyidagilar: أَعْطَى، سَأَلَ، أَلْبَسَ، مَدَحَ، مَذَّعَ، كَسَى، أَلْبَسَ.

2) o'zidan keyin uchta maf'ul bishining kelishini talab qiladigan fe'llar. Bular ارَى، أَغْلَمَ، أَذْبَأَ، نَبَأَ، أَخْبَرَ، حَدَّثَ lardir.

Maf'ul bishilarini ot kesimli gapga aylantirishning imkonini bo'ladigan fe'llardan ظن، خال، حَسِبَ، زَعَمَ، جَعَلَ، عَدَ، حَجا، هَبَ "الرجحان" lari ni, ya'ni ikki xil fikrdan biriga og'ishni bildiradi va o'zbek tiliga "...ni ... deb o'yamoq", "...ni ... deb hisoblamoq" tarzida tarjima qilish mumkin bo'ladi. Masalan,

— يَظْنَنُ الْكَسْلَانَ الشَّغْلَ مَجْهُودًا — Dangasa ishni qiyin deb o'ylaydi.

— حَسِبَتْ اخْلَاقَ شَجَاعًا — Akangni jasur deb hisobladi.

— لَا تَحْسُبْ نَيْلَ الْعَلَامَ سَهْلًا — Yuqori darajaga erishishni oson deb hisoblama.⁷⁶

⁷⁴ الشيخ مصطفى غلايني جامع الدروس العربية. مصر. 2007. ص. 394.

⁷⁵ Ibrohimov N., Yusupov M. “Arab tili grammatikasi” 1-jild. –T.: 1997. – B. 111

حنفي ناصف "مجموع الدروس التحوية طشقند 1419هـ الصفحة-157"

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSİYALAR

VII son, Iyun

Ulardan keyin kelgan esa ni, ya'ni “يقين”ni, “ishonchni” bildiradigan fe'llar bo'lib, ularni o'zbek tiliga “...ning ...ligini bilmoq”, “...ni ... deb bilmoq” deb tarjima qilish mumkin. Masalan:

— وجدت الصلح خيراً Sulhni xayrli(yaxshi) deb bildim.

— يلфи العاقلُ الكتابَ سميرأ Oqil inson kitobni tungi suhbatdosh deb biladi.

- زلمنىڭ يارۇنkorligini ko'rdim, ya'ni bildim ma'nosida.⁷⁷

التحويل“ni” fe'llariga kelsak, bular ni, ya'ni bir holatdan boshqa bir holatga aylantirish, o'zgartirishni ifodalaydi. Bunday fe'llardan so'ng kelgan maf'ullarni o'zbek tiliga "...ni ...ga aylantirmoq", "...ni ...qilib olmoq", "...ni ...lashtirmoq" deb tarjima qilish mumkin. Masalan:

– صَيَرْتُ الْعَدُوَّ حَبِيبًا Dushmanni do 'stga aylantirdim.

– لا تتخذ الشيطان ولها Shaytonni do'st qilib olma.

– ارڈ الصعب سھلاً Qiyinni osonlashtiraman.⁷⁸

Maf'ulbihilarini ot kesimli gapga aylantirishning imkoniga bo'lmaydigan اعْطَى، fe'llarini "...ga ...ni bermoq", "...dan ...ni so'ramoq", "...ni ... bilan taqdirlamoq", "...ni ...dan man qilmoq", "...ga ... kiydirmoq" deb tarjima qilishimiz mumkin.

– يعطي الرئيس الم嫉هدين جائزه Rahbar tirishqoqlarga mukofot(ni) beradi.

– سأله عوْفًاً Allohdan avf so‘radim.

– منحت الخادم ديناراً Xodimni dinor bilan mukofotladim.

- منعت المريض الفاكهة Kasalni meva(neyish)dan man qildim (qaytardim).

— ألبست الفقير ثوباً Faqirga kiyim kiydirdim.⁸⁰

أَرَى، أَعْلَمُ، أَذْبَأَ، ذَبَّأَ، أَخْبَرَ، خَبَرَ، حَدَّثَ O‘zidan keyin uchta maf’ul bihining kelishini talab qiladigan fe’llaridan so‘ng keladigan maf’ullarni esa o‘zbek tiliga “...ga ...ning ...ligini ko‘rsatmoq”, “...ga ...ning ... ligini bildirmoq”, ““...ga ...ning ... ligini xabar qilmoq (aytmoq)”, ““...ga ...ning ... ligini so‘zlab bermoq” deb tarjima qilish mumkin. Masalan:

— أريت سعيداً الامر واضحاً — Saidga ishning aniq ekanligini ko'rsatdim.

– أعلمته ایاھ صھيحاً Unga uning to‘g‘riligini bildirdim.

— أنبأت خليلًا الخبر واقعًا Xalilga xabarning ro'y berganligini xabar qildim (aytdim).

— حدّثه ایا ه حقاً — Unga uning haqligini so‘zlab berdim.⁸¹

Shuningdek, maf'ul bihi shaklan qaratqich kelishigida turishi, biroq o'zbek tiliga to'ldiruvchi qilib tarjima qilinishi mumkin. Bu shunday holatda yuzaga kelishi mumkinki, o'timli fe'lning aniq daraja sifatdoshi o'tgan zamонни ifodalab keladigan bo'lsa, uni o'z to'ldiruvchisi bilan izofa qilish shart bo'ladi. Ushbu holatda

77 O'sha asar.- B. 158

⁷⁸ حفي ناصف "مجموع الدراسات النحوية طشقند 1419هـ الصفحة-158

⁷⁹ Abdussalam Muhammad Horun. Al-Asa liybu-l-insho'iyya fi-n-nahvi-l-arabiyyi. Misr. 1979. -B. 9

⁸⁰ حفي ناصف "مجموع البروس النحوية طشند 1419هـ الصفحة-158"

⁸¹الشيخ مصطفى غلابي جامع الدروس العربية. مصر. 2007. ص. 39.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSİYALAR

VII son, Iyun

to‘ldiruvchi shaklan qaratqich kelishigida turgan bo‘lsa ham uni qaratqich aniqlovchi qilib tarjima qilinmaydi, balki uning ma’nosи to‘ldiruvchi holatida qolaveradi.⁸² Masalan:

– هذا ضاربٌ زيدٌ امس Bu kecha Zaydni urgan (kishidir).

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni o'r ganib chiqib shunday xulosaga kelish mumkinki, arab nahvi kitoblarida o'zidan keyin ikkita yoki uchta maf'ul bihining, ya'ni tushum kelishigidagi so'zning kelishini talab qiladigan fe'llar mavjud. Ushbu fe'llardan so'ng keladigan ikki yoki uchta maf'ulning barchasi shaklan tushum kelishigida, ya'ni oxiri fathada turadi. Biroq shaklan tushum kelishigida kelayotgan bu ismlarni o'zbek tiliga qaratqich, tushum, jo'nalish va chiqish kelishiklarida tarjima qilish mumkin.

O‘zidan keyin ikkita maf’ulbihini talab qiladigan fe’llardan so‘ng keladigan ismlarning birinchi qismini ayrim vaqtarda qaratqich kelishigida tarjima qilinadi.

Maf’ul fiyhi. Maf’ul fiyhining maf’ul bihiga o‘xshash tomonlarini yoritishdan oldin unga berilgan ta’rifni keltirib o‘tamiz.

Maf'ul fiyhiga berilgan ta'rif quyidagicha: Maf'ul fiyhi (u zarf deb ham nomlangan.) ish-harakatning zamonini yoki makonini bayon etish uchun keltiriladigan “في”, ya'ni “da” qo'shimchasini qo'yib aytish mumkin bo'lган tushum kelishigidagi ismdir. Agar uning oldiga “في” old qo'shimchasini qo'yishning imkonli bo'lmasa, u holda u maf'ul fiyhi emas, balki gapdagi biror bir omilning ta'sirida kelayotgan boshqa vazifadagi ism bo'ldai. Ot kesimli gapning egasi yoki kesimi bo'lishi mumkin. Masalan, - يوم سعيد Kunimiz baxtli kundir. Fe'l kesimli gapning egasi bo'lishi mumkin. Masalan, - جاء يوم الجمعة Juma kuni keldi. Yoki maf'ul bihi bo'lishi mumkin. Masalan, - لا تضيع أيام شبابك Yoshlik kunlaringni behuda ketkazma. Shuningdek, gapning bundan boshqa vazifalarda kelishi mumkin⁸³.

Ibn Molikning fikrlari⁸⁴ yuqoridagi fikrlarni quvvatlaydi. Biroq Ibn Aqiyl “في”， ya’ni “da” qo’shimchasini qo‘yish masalasida – سرت في يوم الجمعة Juma kuni yurdim; – Hovlida o‘tirdim; kabijumlalardagi “في” predlogi bilan kelgan gap bo‘laklarini “zarf” atamasi bilan atashda ixtilof bor⁸⁵ deydi.

Yuqorida keltirilgan ta’rifdan ma’lum bo‘lmoqdaki, shaklan tushum kelishi gida kelgan so‘zning oldida predlog bo‘lmasa-da, mazmunida “فی”, ya’ni “da” ma’nosini mavjud bo‘lsa, demak, bu so‘z maf’ul bihi emas, balki maf’ul fiyhidir.

Maf'ul fiyhi, ya'ni zarf quyidagi ko'rinishlarga ega:

Zarf o‘rinni yoki vaqtни ifodalashidan qat’iy nazar mubham (noaniq) yoki mahdud (chegaralangan) bo‘ladi. Mahdud, ya’ni chegaralangan (muvaqqat va muxtass) yoki to‘liq turlanadigan va to‘liq turlanmaydigan deb ham aytildi.

1) A) Mubham va mahdud zarf. Zamonni bildiruvchi zarflardan mubhami aniq belgilanmagan vaqtini bildiradi. Masalan, وقت، زمانْ vaqt, davr, muddat, zamon kabi. Mahdudi, ya'ni chegaralangani esa aniq belgilangan vaqtini ifodalaydi. Masalan، ساعه، ساٽه، امد، حین، وقت، زمانْ - يوْم، اسْبَوع، شَهْر، سَنَة soat, kun, kecha, hafta, oy, yil kabilar. Oylar, fasllar, hafta kunlarining

⁸²Isamutdinov. A Sharqshunoslar anjumani 5-son. 2011-y. –B. 20

⁸³ O'sha asar.-B. 421

⁸⁴ عبد الله بهاء الدين بن عبد الله بن عبد الرحمن بن عبد الله بن حقيب. شرح ابن عقب على الفيء ابن مالك. مكتبة دار التراث. القاهرة. 2005م. الصفحة 286-287.

⁸⁵ عبد الله بهاء الدين بن عبد الرحمن بن عبد الله بن عقيل. شرح ابن عقيل على الفقيه ابن مالك. مكتبة دار التراث. القاهرة. 2005م. الصفحة 286-287.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSİYALAR

VII son, Iyun

nomlari ham chegaralangan zarfga kiradi. Mubham zarf chegaralangan zarning muzofi bo‘lib kelsa, u ham mahdudga aylanadi. Masalan, وقت الصيف زمان الربيع, bahor vaqtiga yoz vaqtiga kabi.

B) O‘rinni bildiradigan zarflardan mubhami, ya’ni noanig‘i aniq belgilanmagan, shakli, doirasi chegaralanmagan joyni bildiradi. Bunga olti taraf, ya’ni old, orqa, o‘ng, chap, tepa va past tomonlar, shuningdek, masofani bildiruvchi so‘zlar, yani mil (farsaxning uchdan biriga yoki 1920 m ga teng), farsax (2250 m ga teng), barid (uzunlik o‘lchovi 12 milga teng), qasaba (3,55 m), kilometr kabilar misol bo‘ladi. O‘rinni bildiradigan zarflarning mahdudi, ya’ni chegaralangani hovli, maktab, masjid, mamlakat kabi aniq chegara ega bo‘ladi. Shuningdek, mamlakatlar, qishloqlar, tog‘lar, daryolar, dengizlarning inomlari ham mazkur turga kiradi.

2) To‘liq turlanadigan va to‘liq turlanmaydigan zarf.

To‘liq turlanadigan zarf gapda zarfdan boshqa vazifada ham keladiagan zardir. Bunga oy, kun, yil kabi so‘zlar misol bo‘ladi. Bu so‘zlar gapning boshqa bo‘lagi vazifasida ham kelishi mumkin. Masalan, سرث يوماً او شهراً او سنة او ليلاً - يالا - يالا - الشهور ثلاثة يوماً - السنة اثنا عشر شهراً - Yil o‘n ikki oydir. Bunda zarf bo‘lib kelmoqda. Oy o‘ttiz kundir. - الليل طويل. Kechaligun meni xursand qildi. - يوم الجمعة يوم مبارك. Uchrashadigan soatingni kutdim. - انتظرت ساعة لفانك Juma muborak kundir misollarida esa yuqoridagi so‘zlar gapning boshqa bo‘laklari vazifasida kelgan.

To‘liq turlanmaydigan zarf esa ikki xil bo‘ladi. Birinchi turi hamisha zarf vazifasida قط، عوض، بين، بينما، اذا، ايان، اني، ذات صباح، ذات ishlatilib, doim tushum kelishigida keladi. Bular صباح مساء، ليل ليل kabি murakkablari ham bor.

Ikkinchi turi esa tushum kelishigida yoki الى، حتى، مذ، منذ من predloglari bilan qaratqich kelishigida keladi. Bular قبل، بعد، فوق، تحت، لدى، لدن، عنده، متى، اين، هنا، ثم، حيث، الان oldin, keyin, tepasida, ostida, huzurida, huzuridan, oldida , qachon, qayerda, bu yerda, u yerda, joyda, hozir kabi so‘zlar.

Zarfning keltirilgan turlarining ichida, asosan, turlanadigan zarflarda maf'ul bihiga o'xshash tomonlari uchraydi. Turlanmaydigan zarflarda bu borada muammo yo'q.

3) Zarfning tushum kelishigida kelishi. Vaqtini ifodalovchi zarf mubham yoki mahdud bo‘lishidan qat’iy nazar fii predlogini qabul qilishi sharti bilan mutlaq tushum kelishigida turadi. Masalan, سرت ليلاً - Tunda safar qildim. Agar في ning ma’nosini qabul qila olmasa, u holda u gapdagi o‘rniga qarab gapning boshqa bo‘lagi vazifasidagi so‘z bo‘lishi mumkin. O‘rinni bildiradigan zarflardan faqat ikkitasigina tushum kelishigida kelishi mumkin. Bular: A) o‘zida في predlogi ma’nosini mujassam qilgan zarf. Masalan, سرت فرسخاً - Minbarning oldida to‘xtadim. Agar fi predogining ma’nosini o‘zida anglatmasa. U holda bu so‘z gapning boshqa vazifasidagi so‘z bo‘ladi. B) zarf mubham yoki mahdud bo‘lishidan qat’iy nazar agar gapning kesimi vazifasida kelayotgan fe’ldan yasalgan bo‘lsa, u ham tushum kelishigida kelishi mumkin. Masalan, ذهبت مذهب ذوى العقل - fozillar majlisida o‘tirdim. Agar gapning kesimi vazifasida kelayotgan fe’ldan yasalmagan bo‘lsa, u yo‘lidan yurdim.

⁸⁶الشيخ مصطفى غلابيني جامع الدروس العربية. مصر. 2007. ص. 426.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

- اقامت في مجلسه هذا الامر مناط الثرياً - سرت في مذهبك - bu ish juda uzoqda, ya'ni ehtimoli uzoq bo'lgan ish ma'nosidagi gaplar esa simo'y bo'lib ularga qiyos qilinmaydi. Fe'lidan yasalmagan mahdud zarf tushum kelishigida kela olmaydi. Balki ular predlog bilan qaratqich kelishigida kelishi kerak. Bunday so'zlar faqat دخل، نزل، سكن - kirmoq, tushmoq va yashamoq so'zlaridan so'ngina tushum kelishigida kelishi mumkin. Masalan، - نزلت البلد - mamlakatga tushdim, Shomda yashadim kabi. Ba'zi nahvchilar shu kabilarni zarf bo'lganligi uchun tushum kelishigida deyishadi. Muhaqqiqlar esa bularni zarf bo'lganligi uchun emas, balki predlog tushirilib qoldirilganligi uchun o'timsiz fe'lni xuddi o'timli fe'l kabi qo'llanilgan deyishadi. Bunday holat ayrim fe'llardan keyingina yuz beradi. Masalan، - نمت الدار - uyda uxladim yoki صليت المسجد - masjidda namoz o'qidim deb bo'lmaydi.

4) Zarf bog'lanadigan so'z. Tushum kelishigida kelgan har qanday so'z fe'l yoki fe'lning shakldoshlariga borib bog'lanadi. Zarf bog'lanadigan so'z gapda ishtirot etishi yoki tushirilib qoldirilishi mumkin. Zarf bog'lanadigan so'zning tushirilib qoldirilishi uch xil holatda shart bo'ladi. Bular: a) "bo'lmoq", "bor bo'lmoq", "mavjud bo'lmoq", "turmoq" kabi turadigan so'zlardan iborat bo'lsa, ma'nosini aniq bilinib turganligi sababli bu so'zlarini tushirilib qoldirilishi shart bo'ladi. Masalan، - العصفر فوق الغصن Chumchuq shox ustida (turipti)dir. - الجنَّة تحتَ أقدامِ الامهات Jannat onalar oyog'i ostidadir. Yoki zarf biror so'zning aniqlovchisi bo'lib keladigan bo'lsa ham tushirilib qoldirilishi shart bo'ladi. Masalan، مررت Maktabdagagi kishining oldidan o'tdim. Zarf biror so'zga nisbatan hol vazifasida kelsa ham omili tushirilib qoldiriladi - رأيتَ الْهَلَالَ بَيْنَ السَّحَابِ bulutlar orasida oyni ko'rdim. Yoki zarf ismu mavsulning silasi, ya'ni aniqlovchi ergash gap bo'lib kelsa ham omili tushirilib qoldiriladi - حضرَ مَنْ عَنْهُ الْخَبَرُ الْيَقِينِ ishonchli xabari bo'lgan kishi keldi. Biroq bu holatda tushirilib qoldirilgan omilga fe'l deb qaraladi, ya'ni ya'ni ergash gap bo'lganligi uchun uni fe'liy jumla sifatida bilinadi.⁸⁷

Yuqorida keltirilgan holatlarda fe'l o'timsiz bo'lsa, u holda tushum kelishigida kelayotgan ism maf'ul bihi emasligini bilishda muammo yo'q. Biroq fe'l o'timli bo'ladigan bo'lsa, u holda qo'yilgan shartlarning mavjud yoki mavjud emasligiga e'tibor berish kerak bo'ladi.

Biroq uchinchi punktda keltirilgan "Fe'lidan yasalmagan mahdud zarf tushum kelishigida kela olmaydi. Balki ular predlog bilan qaratqich kelishigida kelishi kerak. Bunday so'zlar faqat دخل، نزل، سكن - kirmoq, tushmoq va yashamoq so'zlaridan so'ngina tushum kelishigida kelishi mumkin. Masalan، - نزلت البلد - mamlakatga tushdim, Shomda yashadim kabi. Ba'zi nahvchilar shu kabilarni zarf bo'lganligi uchun emas, balki predlog tushirilib qoldirilganligi uchun o'timsiz fe'lni xuddi o'timli fe'l kabi qo'llanilgan deyishadi. Bunday holat ayrim fe'llardan keyingina yuz beradi. Masalan، - نمت الدار - uyda uxladim yoki صليت المسجد - masjidda namoz o'qidim deb bo'lmaydi." kabi fikrlar bu masalani kengroq o'rghanishni taqazo qiladi.

Xulosa qilib aytganda, arab tili sintaksisida maf'ul tushunchasi alohida o'rin tutadi. Ushbu maqolada maf'ulning lug'aviy va istilohiy ma'nosi, uning gapdag'i vazifasi hamda turlarining grammatik va semantik xususiyatlari yoritildi. Tahlididan ko'rinib turibdiki, har bir maf'ul turi — maf'ul bih, maf'ul fihiy, maf'ul li-ajlih,

⁸⁷ الشيخ مصطفى غلايبني جامع الترسos العربية. مصر. 2007. ص. 426.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

maf'ul ma'ahu va maf'ul mutlaq — o'ziga xos savollar va vazifalar orqali aniqlanadi hamda fe'l bilan mustahkam sintaktik aloqada bo'ladi.

arab tilidagi maf'ullar nafaqat grammatik birlik, balki tilning boy semantik imkoniyatlarini ochib beruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Kelgusida ushbu mavzuni chuqurroq o'rghanish, maf'ullarni zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida tahlil qilish istiqbollari ham mavjud.

References:

1. Носирова, М. (2005). Махмуд Замахшарийнинг «Ал Унмузаж фи н нахв» рисоласи. Т.: ТошДШИ
2. Nasirova M. (2004) O'rta asr nahidan namunalar. T.: ToshDSHI
3. Rakhmatova, G. O. (2023). PRINCIPLES OF DIVISION OF SIMPLE SENTENCE TYPES IN ANCIENT TURKIC LANGUAGE. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 5(11), 94-98.
4. Sirojiddin SOTVOLDIEV. (2024). Lexical-Semantic And Functional Analysis Of Translations From The Arabic Press. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 39, 15–17.
5. العلامة ابن حمدون. كتاب حاشية العلامة ابن حمدون على شرح المكودي لألفية ابن مالك. 1955 م. ص-147
6. الشيخ الهمام خالد بن عبد الله الأزروري على ألفية ابن مالك في النحو. القاهرة. 1954 م. ص-323
7. أبو بكر محمد بن سهل بن سراج. الأصول في النحو. 1996. بيروت. ص-159
8. ابن يعيش موفق الدين أبي البقاء يعيش بن علي بن يعيش الموصلي. كتاب شرح المفصل. بيروت. 2001. ص-

272